

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
**FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>H.B.Nuriddinova</b>	
Linguistic feature of english riddles .....	129
<b>S.S.Qozaqova</b>	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
<b>A.M.Abjalov</b>	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	139
<b>N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva</b>	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish .....	143
<b>G.Sh.Ergasheva</b>	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
<b>M.A.Abduqodirova</b>	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
<b>M.A.Sayidova</b>	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
<b>A.X.Шукрова</b>	
Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони	
Сариосиё ва Самарқанд .....	163
<b>M.N.Xamdamova</b>	
Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika.....	172
<b>K.T.Sindorov</b>	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari .....	176
<b>Х.С.Шукрова</b>	
Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ .....	180
<b>Г.Р.Ташматова</b>	
Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии	
профессиональной коммуникативной компетенции .....	187
<b>N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva</b>	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis .....	193
<b>N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya</b>	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies .....	197
<b>I.I.Po'latova</b>	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi .....	205
<b>O.Q.Xasanova</b>	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
<b>K.A.Abdurashidova</b>	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и	
английской традициях.....	213
<b>N.A.Abdullayeva</b>	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
<b>D.Y.Kambarova</b>	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era .....	222
<b>G.T.Khaitova</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili .....	229
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
<b>J.A.Egamnazarov</b>	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
<b>K.T.Israilova</b>	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi .....	242
<b>M.M.Botirova, Z.G.Qodirova</b>	
Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
<b>F.K.Aminov</b>	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital	
identity and engagement strategies .....	250
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



УО'К: 18:005.738.5-053.81

**JAMOAT XAVFSIZLIGI TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING  
IJTIMOIY-SIYOSIY MOHIYATI**

**СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

**THE SOCIAL AND POLITICAL ESSENCE OF IMPLEMENTING INFORMATION  
TECHNOLOGIES IN THE PUBLIC SECURITY SYSTEM**

**Abjalov Abdijabbor Maxammadieyvich** 

IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti, podpolkovnik

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda global miqyosda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va raqamli inqilob sharoitida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье научно проанализированы мнения о социально-политической сущности внедрения информационных технологий в систему общественной безопасности. Также в статье с научной точки зрения освещается, что использование современных информационных технологий в сфере обеспечения общественной безопасности становится актуальным вопросом в условиях стремительных изменений, происходящих сегодня в глобальном масштабе, технологического прогресса и цифровой революции.*

**Abstract**

*In this article, opinions on the socio-political essence of implementing information technologies in the public security system are scientifically analyzed. Also, the article scientifically highlights that the use of modern information technologies in the field of ensuring public safety is becoming a pressing issue in the context of rapid changes taking place today on a global scale, technological progress, and the digital revolution.*

**Kalit so'zlar:** jamoat, xavfsizlik, global, axborot, texnologiya, internet, ma'naviyat, inqilob, terrorizm, ekstremizm

**Ключевые слова:** общество, безопасность, глобальный, информатія, технологии, интернет, духовность, революция, терроризм, экстремизм

**Key words:** society, security, global, information, technology, internet, spirituality, revolution, terrorism, extremism.

**KIRISH**

Bugungi kunda global miqyosda ro'y berayotgan jadal o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va raqamli inqilob sharoitida jamiyat hayotining barcha jabhalarida, ayniqsa, davlat boshqaruvi va xavfsizlikni ta'minlash sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish dolzarb vazifaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Xavfsiz shahar" konsepsiysi doirasida videokuzatuv tizimlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv markazlari, aqlii tahlil tizimlari joriy etilmoqda.

Shuningdek, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida raqamli identifikatsiya tizimlari, biometrik ma'lumotlar bazalari yaratilmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi"[1. 24.]. Zero, yangi asrda jamiyat xavfsizligiga tahdid soladigan omillar tobora murakkablashib, ularning ko'lami kengayib bormoqda. Xususan, kiberjinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik kabi transmilliy tahidilar global muammoga aylanib ulgurdi.

Bugungi kunda globallashuv shiddatining tobora avj olishi va Internetning keng tarqalishi davlat boshqaruvi tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Axborot almashinuvining tezlashuvi mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshiralayotgan islohotlar samaradorligining oshishiga zamin yaratmoqda. Mazkur holat o'z navbatida, shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida o'zar o'mkoniyatlari oshishi natijasida axborot almashinuvi shiddat bilan tezlashib bormoqda.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)**

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida boshqaruvi tizimi transformatsion jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Davlat boshqaruvi tizimiga innovatsion yondashuvlar, "raqamli", shu jumladan "sun'iy intellekt" texnologiyalari joriy qilinmoqda. Albatta, bundan ko'zlangan maqsad boshqaruvi tizimi faoliyatini erkinlashtirish, uni fuqarolar uchun qulay va samarali bo'lismi ta'minlash dolzarb vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur holat, o'z navbatida jamoat xavfsizligini ta'minlashda axborot texnologiyalarini joriy etish ijtimoiy-siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, jamoat xavfsizligi haqida fikr yuritganda, mazkur tushuncha xavfsizlik, barqarorlik va jamoat tartibi atamalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ijtimoiy-huquqiy fanlar va normativ hujjatlarda keng qo'llaniladigan muhim toifalardan biri hisoblanadi. Bu fundamental tushunchalar davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etib, nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham davlat va jamiyat hayotining asosiy elementlarini tashkil etadi.

Buyuk mutafakkir Tomas Gobbs fuqarolik dunyosini eng katta ijtimoiy ne'mat deb hisoblab, uni mohiyatan jamoat tartibi bilan tenglashtirgan. Uning fundamental qarashlariga ko'ra, "jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash davlatning asosiy vazifalaridan biri"[2. 96.] hisoblanadi. Gobbsning bu nazariy qarashlari keyinchalik ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilib, rivojlantirilib, zamonaviy davlat nazariyasining muhim qismiga aylangan. Bu konsepsiya davlat va jamiyat munosabatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Xavfsizlik", "jamoat tartibi" va "jamoat xavfsizligi" tushunchalarining ahamiyati shundaki, ular huquqni muhofaza qiluvchi kategoriylar sifatida, o'z mohiyatiga ko'ra aholi bilan birgalikda davlatning muhim belgilardan bo'lgan hokimiyat va hududni tashkil qilishda asosiy o'rinni tutadi.

Shu o'rinda, "xavfsizlik" tushunchasi haqida fikr yuritsak, "Xavfsizlik" tushunchasi xavfsizlikka oid tadqiqotlarning ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etuvchi eng muhim kategoriyasidir... Xavfsizlik, lug'aviy ma'nosiga ko'ra, "xavf-xatarning yo'qligi", "xavfdan xolilik", "xavf bo'lмаган holat" ma'nolarini bildiradi[3.11.]. "Jamoat tartibi" tushunchasi esa, bu jamoat xavfsizligi, jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, mehnat qilishi va dam olishi uchun sharoit yaratishga, sha'ni, qadr-qimmatini hamda umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga yo'naltirilgan huquqiy va ijtimoiy-axloqiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi"[4.] deya ta'rif berilgan. Shu bilan birga, "jamoat xavfsizligi" tushunchasi haqida fikr bildirilsa, bu jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganish esa avvalam bor "xavfsizlik", "jamoat xavfsizligi", "jamoat tartibi", "jamiyat", kabi tushunchalarni alohida tadqiq qilishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda[5].

Bu tushunchalar davlat faoliyatining turli jabhalarida namoyon bo'ladi va o'zaro uzviy bog'liqlikda amal qiladi. Amaliy nuqtayi nazardan, jamiyatda xavfsizlikning yo'qligi davlatning tarkibiy inqirozidan dalolat berib, bu holat davlat tizimining samarasiz ishlayotganini ko'rsatadi. Shu sababli, davlat doimiy ravishda jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirib borishi lozim.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

XIX asrning ikkinchi yarmida taniqli Lyudvig Gumplovich davlat nazariyasiga muhim hissa qo'shgan. U davlatning huquqni muhofaza qilish funksiyasining muhimligini alohida ta'kidlab, davlatni "ma'lum bir huquqiy tartibni himoya qilish uchun yaratilgan hokimiyatning tabiiy tashkiloti"[6. 36.] deb ta'riflagan. Bu fundamental ta'rif davlatning asosiy vazifalaridan biri aynan jamiyat xavfsizligini ta'minlash ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Gumplovichning qarashlari zamonaviy davlat nazariyasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mashhur Rossiyalik olimi A.Gradovskiy esa davlat borasidagi nazariyani yanada rivojlantirib, davlatni odamlar uchun ijtimoiy va huquqiy tartibni o'rnatish zarurati orqali yanada kengroq talqin qilgan. U davlatga "ma'lum bir hududda yashovchi va bitta oliy hokimiyatga

## TILSHUNOSLIK

bo'ysunadigan, boshqaruvning tartib va umumiy farovonlik sharoitlarini ta'minlash huquqlariga ega uyushgan shaxslar va ijtimoiy birlashmalar massasi"[7.4.] deb ta'rif bergan. Bu keng qamrovli ta'rif davlatning xavfsizlikni ta'minlash funksiyasini uning boshqa muhim vazifalari bilan uyg'unlikda ko'rib chiqqan. Gradovskiyning qarashlari davlat nazariyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu o'rinda davlat hokimiyyati idoralari faoliyatida axborot texnologiyalarini joriy qilish XX asrning so'nggi choragida va ayniqsa, oxirgi yigirma yil ichida kengayib, takomillashib bormoqda. Bu borada dastlabki holatni XX asrning 70-yillarda AQShning Ogayo shtatida o'tkazilgan eksperiment misolida ko'rish mumkin. Ushbu shtatda aholi xonardonlariga interaktiv telematika tizimi o'rnatiladi. Natijada shahar miqyosida "elektron yig'ilish" vujudga keladi, unda fuqarolar mahalliy ma'muriyatning yig'ilishlarida ishtirok etishlari, tegishli tugmachalarni bosish orqali o'z fikrlarini bildirishlari mumkin bo'lgan[8. 79.]. 1993-yilda axborot-kommunikatsion vositalarning davlat tuzilmalariga faol kirib borishi kuzatila boshlandi. Jumladan, AQShda Oq uyga tegishli bo'lgan birinchi rasmiy internet sayt ishga tushgan[9.84.]. Albatta, bunda axborotlashtirish, ya'ni axborot-kommunikatsiya vositalarining o'rni katta.

Shu o'rinda, jamoat xavfsizligi masalasi davlat nazariyasining markaziy masalalaridan biri bo'lib, u davlatning mohiyati va asosiy funksiyalarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fundamental tushunchalar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham davlat faoliyatining samaradorligini baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi yanada dolzarb vazifa sifatida davlatlar bu sohadagi o'z mexanizm va vositalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishini taqoza etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, jamoat xavfsizligi tizimining samaradorligini oshirish va modernizatsiyalash jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish tobora muhim yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, buning zamirida davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda bu orqali jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish vazifasi yotadi. Qayd etish kerakki, "ochiq hukumat", "elektron hukumat", "raqamli transformatsiya" atamalari XXI asrda siyosiy fanlarda muhim konsepsiyalarni shakllantirdi[10. 177.]. Ayrim xorijlik mutaxassislar fikricha, bunday hukumat zamonaviy siyosiy etakchilar uchun etalon vazifasini o'taydi. Zero, buning natijasida fuqarolar, fuqarolik jamiyatni institutlarida jamiyat taraqqiyoti uchun to'siq bo'layotgan turli holatlar bilan kurashish imkoniyati yuzaga keladi[11.525.].

Shuningdek, bunday texnologiyalarning joriy qilinishi natijasida davlat boshqaruvi faoliyatining fuqarolar uchun ochiqligi ta'minlanadi[12.78.].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda ta'kidlash kerakki, darhaqiqat, zamonaviy texnologiyalar siyosiy tizimning ochiqligiga xizmat qilishi bilan birga, fuqarolarda u yoki bu davlat tashkiloti (shu jumladan, mansabdar shaxs) faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini vujudga keltiradi. Bu esa o'z navbatida, tizimning haqqoniy va adolatli siyosiy qarorlar qabul qilinishini va unda fuqarolar manfaatlari inobatga olinishiga asos bo'ladi. Zero, davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad bir tomonidan, "Inson" omilini kamaytirish bo'lsa, ikkinchi tomonidan, davlatning xizmat ko'rsatish vazifasini takomillashtirishdan iborat. Xulosa qilib aytganda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Asosiy maqsadimiz – O'zbekistonning dunyodagi davlat boshqaruvi sifati yuqori bo'lgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan 30 ta davlati qatoriga kirishini ta'minlashdan iborat. Yangi O'zbekiston strategiyasi ijro etuvchi hokimiyyatni tom ma'noda xalqqa xizmat qiluvchi organiga aylantirishni nazarda tutadi"[1.100.]. Binobarin, mamlakatimizda jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishdan ko'zlangan maqsad, yurtimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini asrash orqali tinchlik va osuda hayotni ta'minlashdan iboratdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. Б-24.

2.Гоббс Т. Г57. Сочинения в 2 т. Т. 1/Пер. с лат. и англ.; Сост., ред. изд., авт. вступ. ст. и примеч. В. В. Соколов. - М.: Мысль, 1989.

3.Хавфсизлик асослари [Матн]: дарслик / И.И. Бобоқулов ва бошқалар. – Тошкент: Complex print, 2025.

4.Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолияти: Дарслик / И. Исмаилов, М.З. Зиёдуллаев, Ф.Н. Шукров ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019.

5.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. ПФ-27-сон, 29.11.2021 йил. (Конунчиллик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021. 06/21/27/1116-сон). <https://www.lex.uz/ru/pdfs/5749291>.

6.Гумплович Л. Общее учение о государстве / [соч.] Людвига Гумпловича ; пер. со 2-го нем. изд. со вступ. очерком, примеч. и доп. ст. Ив. Н. Неровецкого. - СПб. : Тип. Т-ва "Обществ. польза", 1910. - [2], XXVI.

7.Градовский А.Д. Лекции по общему государственному праву, читанные и составленные проф. Спб. унив. А.Д. Градовским в 1879/80 акад. году. - [Санкт-Петербург] : лит. Пазовского, [1880].

8.Быков И.А. “Электронная демократия” vs “электронное правительство”: концептуальное противостояние? //Политэк. 2005. №3.

9.Ровинская Т. Электронная демократия в теории и на практике // Мировая экономика и международные отношения, 2013, №12.

10.Brunswicker S., Johnson J. From Governmental, Open Data Toward Governmental Open Innovation (GOI). A Global Perspective // The Handbook of Global Science, Technology, and Innovation. Wiley, 2015. Ch. 24.; Hensley K. An Exploration of the Impact of an Open Governance Approach on Strategic Decision Making, Collaboration, Organizational Change, and Sustainability. Walden University: College of management and technology. 2011.

11.Maguire S. Can Data Deliver Better Government? // The Political Quarterly. 2011. N 82 (4). 12. Игнатова А. М. Открытые данные как новый способ взаимодействия государства и общества // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. 2015. № 1.